

**TODAY, THE GREAT WALL OF CHINA – ONE OF THE SEVEN WONDERS OF THE WORLD: ITS HISTORY AND SIGNIFICANCE FOR CHINA**

Student of the History Department, Faculty of History,  
Nizami Named Uzbekistan National Pedagogical University,

**Noraliyeva M.**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20052736>

**Abstract:** This article provides a scientific analysis of the historical formation, architectural structure, and its place among the Seven Wonders of the World of the Great Wall of China. The study examines the stages of construction and reinforcement of the wall from ancient times, particularly during various dynasties such as the Han Dynasty and the Ming Dynasty. It also highlights its military-strategic importance, its role in ensuring the security of trade routes, and its present-day significance as a world cultural heritage site. The article also analyzes the protection of the wall by UNESCO and its contribution to the development of global tourism. The research results reveal that the Great Wall of China is not only a historical monument but also an important symbol of human civilization.

**Keywords:** Great Wall of China, Hippodrome, Walls of Babylon, Library of Alexandria, Acropolis, Colosseum, Hagia Sophia.

**“Bugun Xitoy devori – Dunyoning yetti mo‘jzasidan biri” uning tarixi va Xitoy uchun ahamiyati**

Nizomiy nomidagi O‘zMPUning Tarix fakulteti Tarix yunalishi talabasi Noraliyeva M.

**Annotatsiya:** Buyuk Xitoy devorining tarixiy shakllanishi, me'moriy tuzilishi hamda uning Dunyoning yetti mo'jzalarini orasidagi o'rni ilmiy jihatdan tahlili ushbu maqolada yoritiladi. Tadqiqotlar davomida devorning qadimgi davrlaridan boshlab turli sulolalar xususan, Xan sulolasi va Min sulolasi davrida qurilish ishlari mustahkamlanish bosqichlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, uning harbiy-strategik ahamiyati, savdo yo'llari xavfsizligini ta'minlashdagi roli hamda bugungi kunda jahon madaniy merosi sifatidagi ahamiyati yoritiladi. Maqolada devorning UNESCO tomonidan muhofaza qilinishi va global turizm rivojiga qo'shayotgan hissasi ham tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari Buyuk Xitoy devorining nafaqat tarixiy yodgorlik, balki insoniyat sivilizatsiyasining muhim ramzi sifatidagi o'rmini ochib beradi.

**Kalit so'zlar:** Buyuk Xitoy devori, Ippodrom, Bobil devori, Aleksandriya kutubxonasi, Akropol, Kolizey, Ayo Sofiya.

**Kirish**

Insoniyat tarixida yaratilgan ulkan me'moriy inshootlar jamiyat taraqqiyoti, texnologik yutuqlar va madaniy qadriyatlarining yorqin ifodasi hisoblanadi. Shunday nodir obidalar qatorida Buyuk Xitoy devori alohida o'rin egallaydi. Ushbu inshoot qadimiy sivilizatsiyalarning mudofaa ehtiyojlari, siyosiy birlashuv jarayonlari va hududiy yaxlitlikni ta'minlashga qaratilgan strategiyalarni o'zida mujassam etgan. Dunyo miqyosida tan olingan dunyoning yetti mo'jzalarini tarkibiga kiruvchi qatlam esa uning nafaqat tarixiy va ilmiy ahamiyatini, balki o'zining murakkab qurilish texnologiyasi va turli geografik hududlarni qamrab olgani bilan ajralib turadi. Ular orqali o'tib, tabiat bilan insonning o'zaro munosabatini ham aks ettiradi. Mazkur mavzuni o'rganish orqali qadimgi qurilish mahoratlarining salohiyati, mehnat taqsimoti va resurslardan

foydalanish darajasi haqida chuqur tasavvur hosil qilish mumkin. Shu bilan birga, Buyuk Ipak yo'li davri globallashuv davrida madaniyatlararo muloqot va tarixiy merosni asrash va uni kelajak avlodlarga yetkazish masalalarida muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

### **Asosiy qism**

Dunyoning yetti mo'jizasi haqidagi mufassal ma'lumotlar ko'pchilikni qiziqtirishi tabiiy. Insoniyat tarixining turli davrlaridagi madaniyatning noyob durdonalari va san'atning yuksak namunalari dunyo mo'jizalari deb tan olingan. Obidalarini davr nuqtai nazaridan ikki guruhga bo'lish mumkin: qadimgi va yangi dunyo mo'jizalari. Shunisi e'tiborga loyiqki, qadimda va hozirgi zamonda dunyo mo'jizalari qatoriga aynan yettita obida kiritilgan. Buning tarixi mil. av. V asrdagi qadimgi Yunonistonga borib taqaladi. 7 raqami Yunonistonda ovchilik fan, san'at va bashoratlarni ma'budi Appolonning muqaddas raqami hisoblanadi. O'ning tug'ilgan yettinchi kunida Appolonning tug'ilgani, quyosh timsolida turgan yettita oq, ushlab turgan yettita musiqa asbobida yettita simli bo'lgan. Shu obidalarining ulug'vor va ulkan turish ro'yxatini qudratini namoyish etishga Appolonning harakat qilingan. Dunyodagi gator xalqlarda, xususan, musulmon mamlakatlarida 7 raqami xosiyatli hisoblangan. Jumladan, kamalakning yetti rangi, oddiy ko'z bilan ko'rish mumkin bo'lgan yetti osmonu yetti iqlim, yetti aka-uka kabilarni xalq og'zaki ijodi va adabiyotlarda ko'p uchratish mumkin. Dunyodagi yettita mo'jiza ro'yxatini ilk bor qadimgi yunon tarixhisi, olimi, geografi va kartografiaga oid bir qator ma'lumotlarni yozib qoldirgan Gerodot miloddan avvalgi V asrda tuzgan. Gerodot o'sha vaqtlardagi dunyoning yetti mo'jizasi deb atalgan obidalarini bevosita ko'rgan va o'zining "Tarix" nomli asarida ular haqida so'z yuritgan. Olim o'sha vaqtdagi dunyo mo'jizalariga Bobil minorasi, Frot daryosida qurilgan ko'priklar, Fayum va Hasidagi labirint, Samos orolidagi pistonning uchta obida — tunnelga o'xshash akveduk, oroldagi uchta obida oroldagi portda qurilgan damba va ma'buda Gera ibodatxonasini kiritgan. Tarixning turli davrlarida dunyoning yetti mo'jizalari ro'yxatiga qadimgi Bobil devori, Aleksandriya kutubxonasi, Memnonning kuylovchi haykali, Afinadagi Akropol, Rimdagi Kolizey, Konstantinopoldagi (hoz. Istanbul) Ayo Sofiya ibodatxonasi kabi inshootlar kiritilgan. Miloddan avvalgi IV asrda yashab o'tgan va Amifiy va Fariachu dunyoning yetti mo'jizasi ro'yxatiga kiritilgan. Shvetsariyalik kinorejissiyor Bernard Veberning tashabbusi bilan 2007-yilda dunyoning yangi yetti mo'jizasini aniqlash bo'yicha telefon va internet orqali so'rov o'tkazildi. Mazkur so'rovda sayyoramizning turli burchaklaridan 100 milliondan ortiq kishi ishtirok etdi. O'tkazilgan ushbu so'rovda ham "7" raqamining o'rni muqaddas bo'lib qoldi. Chunki g'oyasi muallifi B. Veber dunyodagi 77 ta obidalar ichidan 7 ta eng mo'jizaviy obidalarini tanlashni taklif etdi. Ovoz berish yakunlarini e'lon qilish ham mo'jizakor 2007-yilning 7-iyuliga (ya'ni 07.07.07-yilda) belgilandi. Eng ko'p ovoz olgan hozirgi vaqtda mavjud quyidagi obidalar yangi dunyoning yetti mo'jizasi deb olindi: 1. Buyuk Xitoy devori 2. Machu-Pikchu Perudagi inklarning qadimgi shahri 3. Petra Iordaniyadagi tog'ga o'yib ishlangan 4. Chichen-Itsa shahri Meksikaning Yukatan yarim orolida 5. Rimdagi Kolizey. 6. Hindistondagi Toj Mahal maqbarasi. 7. Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahridagi Korkovadu tog'ida joylashgan Iso payg'ambarning ulkan haykali. Misr ehromlari bu ro'yxatga kiritilmadi, ammo tashkilotchilar tomonidan mazkur inshootlar "yangi dunyoning faxriy mo'jizasi" sifatida e'tirof etildi. 2007-yilda o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, yangi dunyoning yetti mo'jizasi qatorida nomi birinchi o'rinda tilga olingan ushbu buyuk devorni xitoyliklar "Van li chan chen" – "o'n ming li uzunlikka cho'zilgan devor" deb atashadi. 1 li 576 metrga teng ekanidan kelib chiqib, devorning uzunligini taxminan hisoblash mumkin bo'lsa-da, ammo turli manbalarda Buyuk Xitoy devorining uzunligi haqida keltirilgan ma'lumotlar bir-biridan farq qiladi. Jumladan, ba'zi manbalarda ushbu inshootning uzunligi 4 ming kilometr, 5 ming kilometr yoki uning tarmoqlari bilan birgalikdagi uzunligi 8850 kilometr dan ortiq deb ko'rsatilgan. Devorning o'rtacha balandligi 6,6 metr, ba'zi joylarda 10 metrdan oshadi, asosining kengligi 6,5 metr, tepa qismining kengligi 5,5 metrni

tashkil etadi. Devorning ustida ikkita ot aravaning bemaol harakat qilishiga imkon bergan. Xitoy devori bo'ylab qator mudofaa istehkomlari, qorovulxonalar minorasi, shaharga kirish darvorlari, asosiy tog' yo'laklari yonida esa kichik qal'alar bunyod etilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, Buyuk devorni qurish ishlari Xitoyning birinchi imperatori Sin Shixuandi (Sinlar sulolasi mil. avv. 475-221-yillar) hukmronligi davrida davlatni shimoliy qabilalardan himoya qilish maqsadida boshlangan. Devor qurilishida bir milliondan ortiq kishi, ya'ni o'sha paytdagi Xitoyning beshdan bir qism aholisi ishtirok etgan. Bu paytda yaratilgan devorning uzunligi 2000 kilometrdan oshib, asosan, mustahkamlangan tuproqdan tashkil topgan. Taxminlarga ko'ra, Xitoyning birinchi imperatori Sin Shixuandi turli bo'laklardan iborat devorni mustahkamlab, uni yaxlit inshootga aylantirgan. Xan sulolasi davrida (miloddan avvalgi 206 — milodiy 220) yil Xitoy devori g'arbga, Dunxuangacha uzaytirilgan. Shuningdek, savdo karvonlarini ko'chmanchi xalqlarning hujumidan himoya qilish maqsadida qorovullar turadigan minoralar tizimi, hatto uzoq cho'l hududlarida ham barpo etilgan. Tarixiy manbalarga ko'ra, Buyuk Xitoy devorining bizgacha saqlanib qolgan asosiy qismi Xitoyda Minlar sulolasi hukmronlik qilgan 1366–1644-yillarda barpo etilgan. Bu davrdagi asosiy qurilish materiallari bo'lgan g'isht va yo'nilgan tosh bo'laklari devorning yanada mustahkam bo'lishini ta'minlagan. Minlar sulolasi Xitoyda hukmronlik qilgan davrda Buyuk Xitoy devori Sariq dengizning Boxay qo'ltig'i qirg'oqlaridan hozirgi Gansu va Shinjon-Uyg'ur avtonom rayoni o'rtasidagi chegaraga qadar cho'zilgan. Buyuk Xitoy devorining Shinxuandao shahri yaqinida Sariq dengizdagi Boxay qo'ltig'iga kirib borish joyi xitoy tilida "Lao long tou", ya'ni "Keksa ajdarning boshi" deb ataladi. Undagi qatlam ham devorning dengizga kirib borgan qismi bo'lgan keksaygan ajdarning boshi dengizdan suv ichayotgan holatni eslatadi. Manjuriyalik Sinlar sulolasi 1644-yilda Sanguy yonida turli hiylalar bilan Buyuk Xitoy devoridan oshib o'tib, hokimiyatni egallagan. Shundan keyingi uch asr davomida, ya'ni 1911-yilgacha o'z holiga kelgan. Faqat devorning Pekin yonidagi qismi — Badalin „poytaxt darvozasi“ vazifasini o'tagani bois, doimiy nazoratda va yaxshi holatda saqlangan. 1984-yildan boshlab Buyuk Xitoy devorini qayta tiklash va ta'mirlash dasturining amalga oshirilishi natijasida mazkur buyuk inshoot o'zining tarixiy ko'rki va ulug'vorligiga qayta ega bo'lmoqda. Buyuk Xitoy devori turli davrlarda bir necha marta vayron etilgan va qayta tikilgan. Ammo u mohirlik bilan mustahkam bunyod etilgani bois, bizning davrimizgacha saqlanib kelgan. Ma'lumotlarga ko'ra, devorni bunyod etishda ishlatilgan g'isht va yo'nilgan tosh bo'laklarini terish uchun yopishqoq guruch bo'tqasining so'ndirilgan ohak bilan qorishmasidan foydalanilgan. Mazkur qorishma inshootning katta qismi uzoq muddat buzilmay kelishini ta'minlab berayotgan bo'lsa ajab emas. Buyuk Xitoy devori koinotdan bemaol ko'rinadigan yagona me'moriy inshootdir. Mazkur me'morchilik mo'jizasi deyarli butun Xitoy bo'ylab ya'ni shaharlar, chollar (tog'lar), chuqur tog' daralari orqali o'tib, barpo etilgan vaqtda mamlakat hududini yaxshi himoyalangan ulkan qal'aga aylantirgan. Shuningdek, devor o'z mahobati bilan dunyo me'morchiligi tarixida tengi yo'q inshoot bo'lib, xitoyliklarning iftixoridir. Xitoydagi sayyohlar uchun mo'ljallangan har qanday yo'l ko'rsatkich devor haqidagi ma'lumotlarni o'zida aks ettiradi. Xitoyliklarning fikricha, ushbu devor tarixi... Xitoy tarixining yarmi demak. Osmon osti mamlakati haqida mazkur buyuk inshootda bo'lmay turib tasavvurga ega bo'lish qiyin va uni tushunish mumkin emas. Shu bois Buyuk Xitoy devorini ko'rish uning mahobatini his etish uchun har yili dunyoning turli mamlakatlaridan millionlab sayyohlar tashrif buyurishadi. Ushbu inshoot sayohat chog'ida xorijdan kelgan sayyoh nomi hamda Buyuk Xitoy devoriga tashrif buyurgan sana ko'rsatilgan guvoynomaga ega bo'lishi mumkin. Shuni aytish ham kerakki, devor qadimda faqat himoya uchun emas, balki savdo va migratsiyani nazorat qilish uchun ham ishlatilgan. Masalan, Ipak yo'li orqali o'tgan savdogarlar aynan devor darvozalaridan hal bo'lishiga majbur bo'lgan va borishgan. Bu yerda boj to'lagan. Rivoyatga ko'ra, Buyuk devor hech qachon ismli yagona yaxlit inshoot devor bo'lmagan, balki asrlar va davomida qayta-qayta

qurilgan murakkab tizimdir. Ko'pchilik o'ylaganidek, Buyuk Xitoy devori kosmosdan oddiy ko'z bilan ko'rinmaydi. Bu fikr keyinchalik rad etilgan. Astronavtlar ham buni ham tasdiqlagan. Xitoyda yana bir qarash bor: devorni qurishda ishlagan odamlarning ruhi hanuzgacha devor atrofida kezadi degan e'tiqod mavjud. Shu sababli ayrim hududlarda mahalliy aholi kechasi u yerga borishni yoqtirmaydi. Yana bir rivoyatga ko'ra, Meng Jiangnu ismli ayolning eri majburan devor qurilishiga olib ketiladi va u yerda halok bo'ladi. Ayol erini izlab kelib, shunchalik qattiq yig'laydiki, uning ko'z yoshlaridan devorning bir qismi qulab tushadi va erining suyaklari topiladi. Bu rivoyat devorning insoniy fojiga ham guvoh bo'lganini ko'rsatadi. Ingliz olimlarining ma'lumotlariga ko'ra, xunlar otliq qo'shinlari bilan tezkor hujum qilib, Xitoy chegaralarini buzib o'tgan. Shu sababli, Xitoy imperatorlari ularni to'xtatish uchun devor qurishni jadallashtirgan. Buyuk Xitoy devori aynan xunlar xavfiga qarshi qurilgan eng muhim mudofaa tizimlaridan biri edi. Buyuk Xitoy devorining strategik ahamiyatlaridan bir nechta. Bulardan harbiy himoyada — xunlarning tezkor bosqinlarini sekinlashtirish, nazorat tizimini mustahkamlash ya'ni chegaradan o'tishni kuzatish bo'lgan. Undan tashqari, signal tizimi ya'ni dushman va bosqin haqida tez aholiga tutun va olov orqali xabar berilgan. Buyuk Xitoy devori nafaqat tashqi dushmandan himoya qilgan, balki aholining ko'chib yurishini ham nazorat qilgan. Ayniqsa, yaqin hududlarda dehqonlar va chorvadorlarning boshqa tomonga o'tib ketishi oldi olingan. Bu orqali davlat soliq to'lovchilarini saqlab qolgan va ichki barqarorlikni ta'minlagan. Devor xitoyliklar ongida „biz“ va „ular“ tushunchasini shakllantirgan. Ya'ni u sivilizatsiyalashgan Xitoy va yovvoyi tashqi dunyo o'rtasidagi ramziy chegara vazifasini bajargan. Bu holat Xitoyda o'ziga xos milliy o'zlik va ustunlik hissini kuchaytirgan.

Xulosa sifatida aytish joizki, Buyuk Xitoy devorining Xitoy mamlakati uchun madaniy, tarixiy, harbiy, siyosiy, iqtisodiy jihatlari katta. Va bu Xitoy uchun balki jahon uchun ham mo'ljizadir. Ko'pchilik devorni faqat devor deb o'ylaydi, lekin u aslida harbiy infratuzilma tizimi bo'lgan. Unda oziq-ovqat omborlari, qurol-aslaha saqlash joylari, askarlar uchun doimiy garnizonlar mavjud bo'lgan. Bu esa chegarada uzoq muddatli harbiy nazoratni ta'minlashga imkon beradi.

Yana boshqa masalalar ham bor. Devor qurilishi natijasida ayrim hududlarda o'rmonlar kesilgan, yerlar tekislangan, ekologiya o'zgaragan. Natijada u Xitoyning shimoliy hududlarida inson tomonidan yaratilgan geografik o'zgarishlarga davlat nazorat apparatining bir qismi bo'lgan. Masalan, jinoyatchilar yoki qochoqlarni tutish, noqonuniy savdoni to'xtatish, davlatga qarshi kuchlarni cheklash. Ammo devorni qurish jarayonida juda ko'p aholi qurbon bo'lgan, qanchadan-qancha xalq jabr ko'rgan. Ba'zi manbalarga ko'ra, devor qurilishida juda ko'p odam halok bo'lgan va shu sababli u ba'zan „eng uzun qabriston“ deb ham ataladi. Ammo hatto ayollar o'g'il farzand ko'rmasliklari uchun xudoga iltijolar qilishar, agar farzandi o'g'il bo'lsa chuqur qayg'uga botishgan ekan. Chunki hamma bolalar esini taniganidan devor qurilishiga safarbar etilgan. Ammo bir tomondan ko'chmanchi xalqqa asir tushib, o'lpan va soliqlar to'lagandan, yurt himoyasi uchun jon berish afzaldir. Bugungi kunda Buyuk Xitoy devori Xitoy xalqining milliy ramzi hisoblanadi. O'tmishda aholi undan aziyat chekkan, nafratlanagan bo'lsa, hozirda u xalqning tarixiy kuchi, sabr-toqati va birligini ifodalaydi. Xitoyda hatto «Devorni ko'rmaslik odam haqiqiy xitoylik emas» degan ibora ham mavjud. Buyuk devor 1987-yilda UNESKO tomonidan Jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan. Bu esa uni nafaqat balki butun insoniyat uchun muhim madaniyat boylik sifatida tan olinishini anglatadi. Devorni saqlash va tiklash ishlari xalqaro darajada olib borilmoqda. Sharqning buyuk g'ururi va sivilizatsiya ramzi bo'lgan devor hozirgi zamon san'ati, kino va adabiyotda ham keng tasvirlanadi. Bu esa Xitoyning buyukligini yanada ko'rsatadi.

Devor bugungi avlod uchun tarixni eslatib turuvchi jonli yodgorlikdir. Undan tashqari, hozirgi kunda devor arxeologiya va tarix fanlari izlanuvchilarining tadqiqot ishlariga qo'l

kelmoqda. Bunda qadimgi qurilish texnologiyalari, harbiy strategiyalar o'rganilib fanga kiritilmoqda. Xulosa, devor o'tmish bilan bugunni bog'lab turuvchi noyob tarixiy ko'prikdir. U nafaqat toshlardan, balki tarix, mehnat va orzulardan qurilgan. Bu devor — vaqtni yenggan inson irodasining ifodasidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Waldron Arthur, The Great Wall of China: From History to Myth, Cambridge University Press, 1990.
2. Lovell, Julia, The Great Wall: China Against the World 1000 BC - 2000 AD, Picador, 2006.
3. Hansen Valerie, The Silk Road: A New History, Oxford University Press, 2012.
4. Sayyoramiz mo'jizalari - Karomiddin Gadoyev, Sabohat Berdiyeva - Toshkent, O'zbekiston 2012.
5. UNESCO World Heritage Centre. The great Wall